



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 21-dekabr, payshanba,

151 (23.872)-son

**KUN
HIKMATI**
Yaxshi so'z va
yaxshilikning
ta'sirini kichik
sanamang

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@z

https://twitter.com/zarnews_uz

RAHBARLAR YOSHLARNI ESHITYAPTI

Shu kunlarda yurtimizda rahbarlarning yoshlari bilan uchrashuvlari o'tkazilmoqda.
Bu tadbirda yil sarhisob qilinib, yigit-qizlarni o'ylantirib kelayotgan masalalarga
yechim topilmoqda.



da mazkur soha rivojiga
xizmat qilishdan iborat.
Bugungi kabi uchrashuvlar
esa yilni sarhisob qilish,
bir-birimiz bilan ochiq mulo-
qotga kirishish uchun yana
bir qulay fursat.

Uchrashuvda talabalar
o'quv jarayonlar, universi-
tetdagi yaratilgan sharoit,
qo'shma ta'limgasturlari va
xorijiy davlatlardagi hamkor oliy
o'quv yurtlarida o'qish, mala-
ka oshirish yuzasidan rektorga
murojaat qilib, o'zlarini qiziqti-
gan savallaringa javob oldilar.

Keyingi yillarda yurtimiz ta'limga
tizimidagi islohotlar va davr talaba-
idan kelib chiqib tashkil etilgan
mazkur oliy o'quv yurtida bugungi
kunda 6 ming naftaga yaqin talaba tahsil oladi. Qis-
qa vaqt ichida universitet dunyoning turli mamlakat-
lari uchida 100 ga yaqin oliy o'quv yurti bilan hamkorlik
aloqalarini o'rnatdi. Bir necha yo'nalishlar bo'yicha
qo'shma ta'limgasturlari yo'iga qo'yilgan, o'qituvchilar
va talabalar xorijiy grant loyihibarida ishtirok etmoqda.
Yaqinda universitetning besh nafar talabasi nufuzli davlat
stipendiyalariga sazovor bo'ldi.

Uchrashuvda bir guruh faol talabalar universitet rahbari-
yat tomonidan rag'batlantirildi.



USTOZ – TA'LIM BUNYODKORI

Kecha Samarcand shahrida o'qituvchilar
qurultoyi bo'lib o'tdi. Dastlab o'qituvchi-
lar uchun ta'limgasturlari oshirishga qa-
ratilgan seminar-trening tashkil etildi.
Kunning ikkinchi yarmida Maktabga-
cha va mabtasiga ta'limi vazirining birin-
chi o'rinnibosari Usmon Sharifxo'jayev
bilan davra suhbati uyuştirildi.

- Tizimda ilk bor eng yaxshi ustozlar-
ni saralab, o'qituvchilar qurultoyi tashkil
qildik, - dedi U.Sharifxo'jayev. - Bu tadbir
o'rganish va o'rgatish maqsadida bo'lib
o'tmoqda. Bugungi seminar-treninglarda
kimdir o'rgandi, kimdir o'rgatdi, o'zaro
tajriba almashindir. Maktabga yangi
ta'limgasturlari, xorijdan o'qituvchi-
lar olib kelinayotgani, yangicha baho-
lash tizimining sinovdan o'tayotgani
kabi masalalar muhokama qilindi.

Qurultoya vazir o'rinnibosariiga maktab o'qituvchilari
tomonidan darsliklar masalasi, ilg'or ish tajribalarini om-
malashtirish, attestatsiya jarayonlari haqida savollar beril-
di. Masalan, 1-4-sinf o'quchilarining matematika dars-
ligi murakkab tuzilgani, o'quchilar darsda belgilangan
vazifalarini yechishga ulgura olmayotgani aytildi. 10-sinf
adabiyot darsligi yetishmayotgani, ona tili grammatikasida
bahsi mavzulari mavjudligi bo'yicha e'tirozlar bildirildi.

Tadbir so'ngida maktab ta'limga astoyildi xizmat
qilib kelayotgan bir guruh o'qituvchilar "Xalq ta'limi
fidoyisi", "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishonlari ham-
da faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

- Ko'p yillik mehnatlarni uchun menga vazirlik tomonidan
"Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni berildi, - dedi Urgut
tumanidagi 56-umumiy o'rta ta'limgasturi direktoriining
ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinnibosari Bahrom Tu-
galov. - Bu mukofot ta'limgasturiga qaratayotgan e'tibor
samarasidir. Ammo mabtablarda muammolar ko'p, ularni
birgalikda, o'zaro tajriba almashqan holda barтарaf etish
mumkin. Bu kabi qurultoylar ko'proq o'tkazilsa, tizimdagagi
kamchiliklarga yechim izlansa, yanada yaxshi bo'lardi.

Xurshida ERNAZAROVA.

YANGI YIL DASTURXONIGA



Bulung'urda ham tuman hokimi Samandar Astonov yoshlari bilan uchrashdi. Keyingi yillarda yoshlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ularidan unumli foydalananayotgan yigit-qizlarning erishayotgan yutuqlari, duch kelinayotgan muammolar va ularning yechimi xususida so'z yuritdi. Turli yo'nalishlar bo'yicha muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlari, ularga yaqindan ko'mak berayotgan yetakchilar, mas'ullar, nuroniyalar mehnati alohida

e'tirof etildi. Tuman hokimi stipendiysi uchun to'rtinchiligi bo'lgan 13 nafar g'olibiga bir million so'mdan pul mukofoti topshirildi.

- Bugun men uchun quvonchli kun, - deydi tumandagi 46-maktabning 11-sinf o'quvchisi Ilhom Eshonqulov. - Tengdoshlar qatori tuman hokimi stipendiysini qo'liga kiritdim. Bu kimlar uchundir arzimasdek tuyular, amma

keyingi muvaffaqiyat-
lar uchun tashlangan
qadam, desam xato
bo'limaydi. Tanlovda kimyo
va matematika yo'nalishida
g'olib bo'ldim.

Shuningdek, fan olim-
piadasining viloyat bosqichi
g'oliblari bo'lgan 10 nafar,
"Zulfiya" nomidagi davlat muko-
foti uchun o'tkazilgan tanloving
viloyat bosqichida yuqori natijalarini
qo'liga kiritigan 3 nafar yoshlari
ham munosib taqdirlandi. O'tayot-
gan yil davomidagi faoliyati natijadorligi
yuqori baholangan 8 nafar yoshlari
yetakchisiga, yoshlari bilan ishlashda
jonbozlik ko'satisib kelayotgan 5 nafar
nuroniyiga tuman hokimligi hamda Yos-
hlari agentligi tuman bo'limi tomoni-
dan tashakkurnoma va esdalik sovg'alari
topshirildi.



doiniy nazorat olib borilmoqda. Iste'molchilarni aldash
holatlarining oldini olish uchun rastalarga mahsulot
narxlari yozib chiqilgan. Xususan, mol go'shti 70 ming
so'mgacha, qo'y go'shti 75 ming so'mgacha, tovuq
go'shti 27 ming, tuxum esa 1100 so'mdan qimmat
bo'limasligi kerak.

Samarqand shahridagi "Siyob dehqon bozori" da
tashkil etilgan yarmarka ham kun davomida xaridolar
bilan gavjum. E'tiborli, bu yerdagi ayrimi mahsulotlar
belgilangan narxdan ham arzonroq sotilmoqda.

- Yarmarkamizda mol go'shti 65 ming so'm,
qo'y go'shti 70 ming so'mdan sotilyapti, - deydi
bozor direktori Shehroz Abbosov. - Boshqa turdag'i
mahsulotlarning ham imkon qadar arzon narxlarda
sotilishini ta'minlayapmiz. Yarmarkada fermerlar
dan tashqari 30 ga yaqin tadbirkorlik subyektlari,
qondolat sexlari ishtirok etayotganligi xaridolarning
tanlash imkoniyatini oshirmoqda.

- Har doim Yangi yil dasturxonasi uchun bozorlikni
yarmarkanadan qilamiz, - deydi Samarqand shahri
Qorasuv massivida istiqomat qiluvchi Obotoy aya
Toshpo'latova. - Bu yerdagi mahsulotlarning sifati
ham yaxshi, narxlari ham arzonroq. Bobodehqonlar,
fermerlarning samimiyyati, ochiqligi kishining kayfiyatini
ko'taradi. Kelinim ikkizim anch'a vaqtдан beri bozord-
amiz, lekin charchoqni his qilganimiz yo'q.
Yarmarkalar 2024-yilning 10-yanvariga qadar
davom etadi.

Asqar ORZIQULOV,
Fazliddin RO'ZIBOYEV (surat).



Payariq tumani hokimi Isroi Jabborovning yoshlari
bilan uchrashuvi ham ochiq muloqot tarzida o'tdi.

Bugungi kunda tumanda 30 yoshlari bo'lganlar
136 ming naftarni, umladan, 14-30 yoshlari 70 ming
dan ortiqni tashkil etadi. Yakuniga yetayotgan yilda
3034 nafar ijtimoiy, moddiy va ma'naviy ko'makka
muhtoj yigit-qizlarni mahallalardagi "Yoshlari daftari" ga
kiritilgan edi. Yil davomida ularga turli shakllarda yordam
ko'rsatilib, 2369 nafar yoshnинг bandligi ta'minlandi, 92
nafariga kredit, 154 nafariga yer berildi.

- Ijtimoiy daftarda qayd etilgan yoshlarga kredit ajratil-
gani yoki berilgani, ishga joylashtirilganligi ularning
muammolari to'laqon hal etildi, degani emas, - dedi
tuman hokimi. - Qachonki, ular, umuman, barcha yoshlari
jamiyatda o'z o'rnnini topib olgandan keyin xotirjam bo'lish
mumkin. Ungacha esa ota-onalar bilan birga mahalla
faoliyari, barcha darajadagi rahbarlar yoshlari hayoti, kelajagi
uchun mas'uliz, ularning oldida burchlimiz.

Uchrashuvda ko'proq yoshlarning fikrlari eshitildi. Ular
o'zlarini va tengdoshlarini qiynatayotgan muammolar yuzasidan
hokim va boshqa rahbarlarga murojaat qildi, o'z takliflarini bildirdi.
Jumladan, Oqtosh mahallasidan Dildora Fayzullayeva tumandagi mabtasiga "Zakovat" klubini ochish, iqtidorli yoshlari
uchun "Hokim stipendiysi" ta'sis etish takliflarini bildirdi. Hokim bu takliflarni qo'llab-quvvatlab, albatta, stipendiya joriy etishini
aytdi.
Farovon mahallasidan Farzona Berdiqulova ijod namunalarini kitob holida chop etishda yordam so'radi. Ijodkor qizning mu-
rojaati ijobi hal etilishi bildirilib, har yili tuman yosh ijodkorlarining to'plamlari tayyorlanishi aytildi.
Uchrashuvda yoshlari vakillari va 2023 yil davomida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan mahallalardagi yoshlari yetakchilariga tuman
hokimligining tashakkurnoma va esdalik sovg'alari, badiiy adabiyotlar to'plamlari topshirildi.



INSON RESURSLARINI BOSHQARISH BO'YICHA TAJRIBA ALMASHILDI

Yaqinda Turkiyada o'tkazilgan II Istanbul Inson resurslari forumida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining o'rinsari rahbarligida mamlakatimiz vakillari ham ishtirok etdi.

Dastlab Istanbul shahri Beyo'g'li tumani hokimiyatiga tashrif tashkil etildi. Delegatsiyamiz bilan tuman hokimi Xaydar Ali Yildiz muloqot qildi.

Uchrashevda mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari va mahalliy boshqaruv tizimi, shuningdek, Beyo'g'li tumani hokimligining faoliyati to'g'risida ma'lumot berildi.

Istanbul forumi doirasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davatlarning inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul idoralari rahbarlari ishtirokida seminar tashkil etildi.

Unda inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish borasida o'zaro tajriba almashildi.

Tadbirda joriy yil 23-24-oktabr kunlari Samargand shahrida tashkil qilingan TDTga a'zo davlatlarning kadrler siyosatiga mas'ul idoralari rahbarlarning ikkinchi yig'ilishi yugori saviyada o'tgani ta'kidlandi.

Seminarda TDT doirasida turk dunyosi inson resurslarini rivojlantirish institutini tashkil qilish masalasi muhokama qilindi. Ushbu tashhabbus joriy yil Ostona shahrida o'tkazilgan tashkilot davlat rahbarlari sammitining deklaratsiyasida ham o'z aksini topgan.

Muhokama davomida tashabbus qiziqish bilan qabul qilinganligi va qo'llab-quvvatlanayotgani qayd etildi.

Tadbir davomida hamkorlikda mahalliy boshqaruv, turizm salohiyatini va investitsion jozibadorlikni oshirish, shahar infrastrukturasi rivojlantirish va shaharsozlik, yoshlar bilan ishlab sohalarida o'zaro stajirovka dasturlarini tashkil qilmasda maqсадga muvofiqligi ma'lum qilindi.

"Xalqparvar jamiyat" shiori ostida tashkil qilingan II Istanbul Inson resurslari forumi ochilish marosimida Turkiya vitse-prezidenti Devlet Yilmaz ishtirok etdi.

Tadbir Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Inson resurslari ofisi tomonidan tashkil etilib, unda 26 ta mamlakatdan 3 ming nafardan ortiq davlat xizmatchilar, xalqarolik ekspertlar ishtirok etdi.

**B.RAHMATULLAYEV,
viloyat hokimligi tashkiliy-kadrler
guruhi rahbari.**

**Yaqinda viloyat
hokimligida oziq-
ovqat do'konlaridagi
sifatsiz mahsulotlar
masalasiga bag'ish-
langan yig'ilish bo'lib
o'tdi. Unda ma'lum
qilingan joylardagi
o'rganish natijalarini qu-
vonrali emas. Do'kon-
larda sotilayotgan
qalbaki, sifatsiz, mud-
dati o'tgan mahsulotlar
ichida go'daklar ozuqasi
ham borligi achinarli hol.**

TADBIRKORNING MANFAATI ISTE'MOLCHINIKIDAN USTUNUMI?

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi hamda viloyat iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatni tomonidan o'tkazilgan monitoring o'rganish tadbirlarida Samarqand shahridagi 23 ta savdo do'konida 724 dona, Samarqand tumanidagi 14 ta savdo do'konida 744 dona, Bulung'ur tumanidagi 4 ta savdo do'konida 268 dona, jami qo'shib hisoblaganda, tumanlardagi 73 ta savdo obyektiida iste'molchi salomatligi uchun xavfli 2307 dona mahsulot sotib kelingani aniqlangan. Anglaganagingizdek, bu hali xamir uchidan patir. Viloyatda yuz minglab shunday do'konlar bor. Agar yuqorida raqamlar asosida mulohaza yuritsa, har 100 mingta do'konda 3 milliontaga yaqin iste'molga yaroqsiz mahsulot bor, degan xulosaga kelish mumkin.

Oziq-ovqat do'konlari tanganing bir tomoni bo'lsa, bozorlar uning ikkinchi tomoni hisoblanadi. Xalqimizning asosiy qismi haftalik, oylik iste'molga yetadigan mahsulotlarni arzonroq narxda bozorlardan xarid qilishga odatlangan. Xo'sh, ularda vaziyat qanday, bozor ma'muriyati oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun nima qilyapti? Ayni savolga Samargand shahri hududidagi dehqon bozorlari misolida javob olisheha harakat qildi.

"Siyob dehqon bozori" 1900 tadan ziyod savdo rastasini o'z ichiga oladi. Iste'molchilar unda kundalik ehtiyoji uchun zarur barcha mahsulotni topishi mumkin. Bozor ma'muriyating ma'lum qilishicha, tegishli tashkilotlar oyoib yoki ikki marotaba kelib, hududagi sanarita, gигигиена va boshqa talablarning bajarilishi holatini o'rganib ketadi. Bozorda sifati buzilgan yoki inson salomatligi uchun xavfli mahsulotlar solishining oldini olish esa Samargand shahar hayonlar kasalliklari tashxi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi 1-veterinariya sanitariya ekspertiza tahlixonasiga yuklatilgan.

Tahlixonadan olgan ma'lumotimizga ko'ra, ular o'tgan noyabr oyining o'zida 5 partiyada 58 kilogramm ikkilamchi mahsulotlar (kalla-pocha), 9 partiyada 273 dona tuxum, 16 partiyada 80 kilogramm sut, 32 partiyada 139 kilogramm (105 bog') ko'kat, 2 partiyada 30 kilogramm poliz mahsulotlari, 2 partiyada 49 kilogramm iste'molga yaroqsiz mol go'shti solishining oldini olishgan.

- Ishni erta tongdan, bozorga olib kelingan mahsulotlarni tahlidan o'tkazishdan boshlaymiz, - deydi tahlilkona mudiri Abduaiz Tursunqulov. - Turli vaziyatlar bo'ladı, mahsuloti iste'molga yaroqsiz ekanligini bila turib, bozorga olib chiqadiganlar ham ko'p uchraydi. Bizning vazifamiz ularni to'xtib qolish, xalqimizning salomatligini himoya qilish. Bozor hududida faqatgina tegishli ma'lumotnomasini bor mahsulotlarni sotish mumkin.

Buni tekshirib ko'rish uchun bozorni aylandik. Biz tasodifly shaklda muloqot qilgan sotuvchilarning barchasida ma'lumotnomasi bor edi. E'tiborlisi, hech kim bizning ma'lumotnomani ko'sratish haqidagi so'rovimizdan taajibuga tushgani yo'q. Aksinchal, sotuvchilar o'z mahsulotining sifatidan ko'ngli to'q, demakki, ishida ham unum bo'ladi. Bu quvonarli hol, albatta. Lekin

tuman tibbiyot bir-lashmasida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini

yaxshilash hamda aholini sifatli va arzon dori-darmon vositalari bilan ta'minlash masalasi o'rganilmoqda.

Ishchi guruh faoliyati davomida birlamchi tizim tibbiyot muassasalarini ish jarayonlari, sharoitlari o'rganildi. Mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga ko'maklashidi. Shuningdek, aholini sifatli va arzon dori-darmon bilan ta'minlash maqsadida tumanidagi barcha dorixonalar faoliyati o'rganilmoqda. O'rganish jarayonida dorixonalarda dori vositalari retseptorsiz, jurnallarda qayd qilinmasdan sotilayotganligi, shifokorlar esa davolash standartlariga riyoq qilmayotganligi, ko'p hollarda asosan chet elda ishlab chiqarilgan, qimmat dorilar taysiya etilayotganligi, ba'zan keragidan ortiq dori vositalari buyurilayotganligi aniqlandi. Yuqoridaq kamchiliklarni inobatga olib, universitet professor-o'qituvchilar shifokorlar bilan tumanning o'zida seminar o'tkazmoqda. Shifokorlarning malakasini oshirish choralar ko'rilidi. Tuman markaziy shifoxonasi barcha bo'limgari, oilaviy shifokorlik punktlari va poliklinika vrachlariga har bir kasallik bo'yicha davolash

Bozorlarda ahvol qanday?

"OLMASANGIZ, TEGINMANG": YANA SIFATSIZ OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SAVDOSI HAQIDA

jarayonda ko'rgan ba'zi muammolarimizni ham aytib o'tishimiz kerak. Birinchidan, bu sifati tez buziladigan ayrim mahsulotlarning, xususan, salatlarning usti ochiq holatda sotilayotganidir. Bozor ma'muriyati buni salat sotuvchilarining joyi aslida boshqa yerda ekanligi, ajaratilgan joyda bu turdag'i mahsulotlarni uchun sovtikchilar berilishi, ammo ular eski joyini o'zgartirishdan bosh tortayotganligi bilan izohladi. Nazarimizda ma'muriyati bu masalaga jiddiyroq kirishmagan, agar kirisha, albatta, tartib o'natalidi. Ikkinci masala, ko'cha savdosid. Tabiiyi, bu yerda "sotuvchi"larda mahsulotining sifatini kafolatlovchi birona hujjat yo'q. Mana shu holatda haqiqatan ham bozor ma'muriyatining qo'li kaltalik qiladi. Sababi, ularda o'z hududidan tashqarida bo'libayotgan noqonuniy savdoni to'xtatish vakolati yo'q. Bozor mas'ulining aytishicha, ular ayni masalada mutasaddi idoralariga bir necha marotaba murojaat qilishgan. Biroq hech kim bu murojaatlarini ijobji hal qila olmagan. Nazoratsizlik muamming chuqur ildiz otishiga sabab bo'lmoida.

"Temir yo'li dehqon bozori" Samarqandning markazida joylashgan eng gavium bozorlardan biri hisoblanadi. Bu yerda tartib Siyobdagidan qolishmaydi. Rastalardagi turfa mahsulotlarni ko'rgan kishining bahri dili ochiladi. Bozor ma'muriyati hududida tartib o'rnatishga alohida e'tibor qaratayotganini, tahlilkona mudiri esa mahsulotlar sifati doimiy nazoratda ekanligini bildirdi. Ammo bozorni ko'zdan kechirish davomida bu yerda ham yuqorida tilga olingan muammolar borligini ko'rdik. Shuningdek, bozor hududida (rastada emas) sifati nom'a lum konserva mahsulotlarni sotayotgan fuqarolarga ko'zimiz tushdi. Ulardan birining mahsulotini ko'zdan kechirayotganimizda qarshilikka ham uchradi.

Bu birligma holat emas. Umuman, bozor yoki savdo do'konlari xaridori sifatida kirim, biron mahsulotning yorlig'i niinchilab o'qishini boshlaganiningizda, aksariyati sotuvchilarning avzoyi boshlibi, "tekshiruvchimiz?", "olmasangiz, tegimang", deb kayfiyatiningizni tushradiganlar ham borligi kuzatildi. Nima, xaridor oladigan mahsulotni tekshirmsiligi kerakmi? O'ziga berilgan imtioy va erkinliklarning barcha tadbirkorlar ham to'g'ri foydalananmayapti, axir. Ularni nazorat qilish esa juda qiyin. Bunga bozorlarni o'rganish davomida yana bir bor amin bo'ldik. Masalan, do'kon bozor hududida joylashgan bo'lsa ham undagi mahsulotlarning sifatini bozor tahlilkonasi nazorat qilmas ekan. "Do'konlar SESga qaraydi", deyishdi ular. "SES" dagilar esa biz faqat fuqarolardan murojaat tushsa, tadbirkor ombudsmani roziligi bilan tekshirish o'tkazishimiz mumkin, deydi. Xo'p, tadbirkorni "tekshir-tekshir" dan himoya qilayotgan ekanmiz, endi iste'molchini ham tadbirkordan himoya qilishning soddaroq tartibini ishlab chiqish kerak, nazarimizda.

ZAHARLANISH HOLATLARI KO'PAYMOQDA

Oqibatdan qo'rg'ymadigan tadbirkorlar diqqatiga: Qalbaki-lashtirilgan, sanitariya-gigiyena va texnologik tartibga riyoq etilagan holda tayyorlangan mahsulotlarni turli zaharli moddalar, kimyoiv birikmlar bilan zaraarlaring yoki kasallik qo'zg'atuvchi mikroblast bilan ifoslangan bo'lishi mumkin. Ular inson organizmiga keng doirada ta'sir etib, asab, endokrin bezlar, yurak, qon-tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi hamda yurak, buyrak, jigar va nerv tizimi faoliyatini izdan chiqaradi. Yengil holatida ham kasallik qo'zg'atuvchi mikroblast o'tkiz oshqozon ichak kasalliklari va ovqatdan zaharlanishga sabab bo'ladi.

Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasidan olingan ma'lumotga ko'ra, keyingi vaqtida aholi o'tsasida sifatini mahsulotlarni iste'mol qilish bilan bog'iqlik xastaliklar, xususan, uning eng og'ir turli hisoblangan botulizm kasalligi ko'paygan. Birgina joriy yilning o'tgan 11 oyida qayd etilgan zaharlanish holatlarining 9 tasa 33 nafar fuqaro botulizm bilan og'rib, shundan 3 nafar olamdan o'tgan. Omon qolgan fuqarolarda ham kasallik og'ir asoratlar goldirgan.

- Aksariyat tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo qoidalariiga riyoq etmayotganligi vaziyatini yanada og'irlashtirmoqda, - deydi boshqarmaning ovqatishanish gigiyeniga bo'limi mudiri Yusuf Rahimov. - Xususan, insonlarning zaharlanishiga asosan go'sht, sut, ikkilamchi chorvachilik mahsulotlari, turli xil pishirilqlar, tez beziluvchi oziq-ovqatlarining ko'cha sharoitida sotilayotganligi, do'konlarda esa sifatini kafolatlovchi hujjatlari bo'Imagan, yaroqlilik muddati o'tgan mahsulotlar savdoga chiqarilayotgani sababdir. Bugun bunday holatni har yerda ko'rish mumkin. Jarayonda qat'iy tarib ta'minlanmas ekan, aholi salomatligiga tahdid yo'qlamaydi.

Mutaxassisning ta'kidashicha, bugungi sharoitda har kim o'z salomatligi uchun kurashishi, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarni tanlashda o'ta hushyor bo'lishi zarur. Jumladan, bo-

zorlar hamda savdo do'konlaridan oziq-ovqat mahsulotlarni xarid qilishda mahsulotning sifati, yaroqlilik muddati, idishining bejirimligi, yorliqlarining mavjudligiga alohida e'tibor berishi, uning sifatini kafolatlovchi hujjatlarni so'rab olishi lozim. Sifati, tovar ko'rinishi buzilgan, tegishli hujjatlari bo'Imagan, ishlab chiqaruvchisi va ishlab chiqarilgan vaqtli ko'rsatilma-gan, uy sharoitida tayyorlangan mahsulotlarni xarid qilmaslik tavsiya etiladi.

SIFATSIZ MAHSULOTNI SOTGAN QAMALISHI MUMKIN

"Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida dori vositalari va tibbiy buyumlarida, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ularning ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati hamda saqlash shartlari ko'rsatilgan bo'lishi belgilangan. Sotuvchilarga ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilgagan yoki yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni qabul qilish hamda realatsiya qilish man etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 178-moddasiga ko'ra, yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni, shuningdek, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shartligi qonunchilikda nazarda tutilgan tovarlarni ularning ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatmagan holda realatsiya qilish hamda sotish uchun qabul qilganlik huquqbazarlik ashyolari musodara qilinishinga va



fugarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan o'n baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solinishinga sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 186-moddasiga asosan, iste'molchilarining hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamaot ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar badanga o'ttacha og'ir yoxud og'ir shistik yetkazilishiga sabab bo'lsa, aybdor bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdandan uch yuz oltmesh soatgacha ma-jburiy jamaot ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolandi. Agar bu harakatlar odam o'limiga sabab bo'lsa, u uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolandi.

- Xorijiy davlatlarda bunday huquqbazarlik uchun yanada og'irroq jazo choralar belgilangan, - deydi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti B.Qozoqov. - Jumladan, Germaniyada sifatsiz mahsulot sotganlik uchun o'ttacha jarima miqdori 25 ming yevroni, Qozog'istonda 4 million tengni tashkil etadi. Rossiya esa ayni huquqbazarli uchun 50 ming rubl jarima qo'llanishi yoki do'kon faoliyati 90 kunga-chaga to'xtatib qo'yilishi mumkin. Aytish joizki, milliy qonunchiligidan xalqimizning yashash tarzi va boshqa qator omillar inobatga olingan. Lekin bu belgilangan jazo yengiligin anglatmaydi. Unda tadbirkor yoki fugaroning xatosini qayta takrorlamasligini ta'minlash principi ustunlik qiladi.

Xulosa qilish sizdan. Biz esa mavzuga yana qaytamiz. Shu kunlarda viloyatimizda tegishli ishchi guruhi tomonidan o'rganish ishlari davom etmoqda.

**Asqar BAROTOV,
"Zarafshon" muxbir.**

Joriy yilning 20-21-dekabr kunlari Samargand davlat chet tillar instituti va Koreya Respublikasining "Koreya ikki tillilik jamiyat" hamda "Global ko'reyshunoslik tadqiqot instituti" bilan hamkorlikda "Tillar tadqiqi va ta'limining dolzARB masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy hamda "Koreya va O'rta Osiyonning bilingual ta'limida mahalliy o'qituvchilarning malakasini oshirish" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar bo'lib o'tadi.

Anjumanlarda tillar tadqiqi va ta'limining dolzARB masalalari muhokama qilinadi. Tadbirlar institutda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida xorijiy tillarni o'rgatish uchun yoshlarimizga yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik baza bilan ko'reyalik mehmonlarni tanishtirishdan boshlanadi.

So'nggi yillarda ushbu oliy ta'lim maskanida xalqaro hamkorlik yaxshi yo'iga qo'yilishi bois dunyoning ko'plab nufuzli oliy o'quv yurtlaridan yuqori malakali mutaxassislar kelib, faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa,

Dunyoda konstitutsiyalar ko'p. Eng qadimiy konstitutsiya Polshada, eng yirigi Hindistonda bo'lsa, qolganlari ham turli omillar asosida bir-biridan farq qiladi. Faqatgina maqsad bitta, u ham bo'lsa, fuqarolarning farovon, xavfsiz hayoti uchun zarur huquqiy muhit yaratish.

Maqsad – insonlarning hayotini yaxshilash

Bosh qomusimizning yangi tahririda ham inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Jumladan, unda shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Ya'ni, shaxsnинг erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, assosiz qamoqqa olish va saqlashga yo'i qo'ymaslikqa qaratilgan.

Konstitutsiyaning 28-moddasida jinoyat sodir etganlikda abyланувотган shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'i bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aysiz deb hisoblanishi, abyланувчига o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanishi belgilandi. Eng asosiyi, aybdorlikka oid barcha shubhalari, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, guman qilinuvchining, abyланувчining, sudsuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Bunda guman qilinuvchi, abyланувчи yoki sudsuvchisi o'zining aysizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtida suket saqlash huquqidan foydalaniishi mumkin.

Aytish jozi, Bosh qonunda shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi mustahkamlangan. Jarayonda abyланувчи va sudsuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi ham berilgan. Ayni kunda bu normalarning so'zsiz ishlashini ta'minlash, fuqaro va davlat xizmatchilarining konstitutsiyaviy bilimlarini oshirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Olim YUSUPOV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, polkovnik.

o'tkazilayotgani ham ana shu xalqaro hamkorlik natijasidir.

Konferensiya ishida Koreya Respublikasining Global koreyshunoslik tadqiqot instituti prezidenti Kim Ji Hyong, Koreya ikki tillilik jamiyat

xorijiy tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash bilan birga, dunyo axborot resurslaridan samarali foydalanish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlari, O'zbekistonda chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilinadi. O'ylaymizki, ushbu ilmiy-amaliy hamkorlik mustaqil yurtimizda iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarimizni yanada yuksaltirishga qodir bo'lgan, xorijiy tillar bilan birga, o'z qadr-qimmati va o'zga xalqlar madaniyatini yaxshi bilgan kadrlar tayyorlashda tajriba maydoni vazifasini o'taydi.

Ahmad RAHIMOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti koreys filologiyasi kafedrasi professori.

Tillar tadqiqi va ta'limining dolzARB masalalari muhokama qilinadi

Sharq tillari bo'yicha hamkorlikda malakali mutaxassislar, magistrant va doktorantlar tayyorlashning yo'iga qo'yilgan maqtovgva arziguylar natijalar qo'lg'a kiritilishiha asos bo'imodqa. Xalqaro maqomdagi bunday nufuzli konferensiyaning aynan ushbu ta'lim muassasasida

